

3. Fondlarni jamlash rejalariga tuzatishlar kiritish, universitet uchun adabiyotlar chiqarishni hamda foydalanuvchilarning va fondlar tarkibini axborotlarga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiqlashtirish maqsadida kitobxonlar talabi qondirish darajasini o'rganish. Barcha toifadagi foydalanuvchilarning o'quv va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish.

Asosiy vazifalari.

1. ARM fondining elektron katalogini tuzish.
2. "IRBIS" dasturini o'rganish va ishda joriy qilish.
3. Yangi qabul qilingan adabiyotlarni inventar daftarlariga qayd qilish va ularni muhrlash.
4. Adabiyotlarni ilmiy ishlab chiqarish: UDK jadvaliga asoslanib tasniflash, sistemalashtirish va kataloglashtirish.
5. Adabiyotlarni texnik ishlab chiqarish: kitobning cho'ntagini elimlash, kitob formulyarini yozish.
6. Adabiyotlarni ARM bo'limlariga, ARM fondlariga taqsimlash.
7. Hisobdan chiqarilgan adabiyotlarni rasmiylashtirish (dalolatnoma tuzish, inventar daftariga maxsus belgi qo'yish).
8. ARM uchun gazeta va jurnallar obunasini tashkil etish.
9. Ilg'or axborot-kutubxona va elektron axborot resurs texnologiyasini, tadqiqot ishlari natijalarini ARM faoliyatida joriy etish.